


ISSIQXONALARDA APELSIN YETISHTIRISH LOYIHASI





Issiqxonalarda apelsin yetishtirish loyihasi / F.Rashidov, M.Faxrutdinov – Toshkent, 2024.

O'quv qo'llanma "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB va "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ muassisligida tayyorlandi hamda nashr ettirildi.

Mualliflar:

Rashidov F.I. – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi O'qitish ishlarini tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Faxrutdinov M.Z. – Toshkent Davlat Agrar Universiteti "Mevachilik va uzumchilik" kafedrası professori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori.

Loyiha ishtirokchilari:

Otamurodov J.Y., Babamuhamedov A.A., Ermatov F.G' – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimlari

Taqrizchilar:

Rizaev N.K. – O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi, "Buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori.

Jo'raev S.T. – Toshkent Davlat Agrar Universiteti "Seleksiya va urug'chiligi" kafedrası mudiri professor, qishloq xo'jaligi fanlari doktori.

Tahrirchi:

Dilfuza Narxujayeva – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimi

Ushbu o'quv qo'llanma Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi ijro organi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

**O'quv qo'llanma Biznesni Rivojlantirish Banki va
Kichik Biznesni Rivojlantirish Jamg'armasi tuhfası hisoblanadi.**

© "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB - 2024

© "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ - 2024

Mazkur o'quv qo'llanma kichik biznes tadbirkorlari uchun asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, undan kichik biznes tadbirkorlari o'z biznes loyihalarini tashkil etish uchun dastur sifatida foydalanishlari mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoat Rivojlanishi Tashkilot (UNIDO) talablari asosida tuzilgan bo'lib, 60411300 - "Biznesni boshqarish" (Bakalavriat), 70411301 - "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish" (Magistratura) hamda 08.00.15 - "Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" (Doktorantura) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar va ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar ham o'quv qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanmada loyihani tashkil etish, biznes yuritish, loyihani boshqarish, loyihani menejmenti va marketingi, loyihani texnik jihatları, texnologik jihozlar va texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish rejasi, ta'minot rejasi, HR-rejasi, moliyaviy rejasi, loyihaning zararsiz ishlash nuqtasi, loyihani rentabelligi, NPV va IRR koeffitsiyentlari, loyihani o'zini-o'zi qoplash muddati masalalari yoritib berilgan.



HURMATLI BIZNES VAKILLARI!

Ma'lumki, kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiryapmiz. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo'lib, minglab doimiy ish o'rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to'liq shakllanib ulgurmas, desak, adolatdan bo'ladi.

Biz yil boshida kichik biznes toifasiga kimlar kirishini aniq belgilab oldik. Endi kichik tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etamiz. Bunda ushbu soha vakillarini tadbirkorlikka o'qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo'yicha yaxlit eko-tizim yaratiladi.

Buning uchun, eng avvalo, "Qishloq qurilish bank"ni "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantiramiz. Ushbu yangi bankning faoliyati ham, ishlash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlari ham yangicha bo'ladi. Jumladan, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi.

Markazlar esa tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga

ko'maklashadi, o'z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo'lgan tadbirkorlarni o'qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, hududlardagi Kichik biznes markazlarida o'qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlar asosida moliyalashtirish yo'lga qo'yiladi.

Uchinchidan, Kichik biznes markazlari ko'magida loyiha tashabbuskori va yirik davlat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalari o'rnatiladi. Bunda yangi korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish va mahsulotini realizatsiya qilishga Markazlar yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu korxonalarga davlat xaridlari tizimida o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni 2 yil davomida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan sotishga ruxsat beriladi.

To'rtinchidan, Kichik biznes markazlarini boshqarishga xususiy sheriklar jalb qilinadi. Ushbu tadbirkorlarga "Biznesni rivojlantirish banki"ga hissador bo'lib kirish huquqi beriladi.

Beshinchidan, yangi tizimni joriy etish bo'yicha alohida qonun ham qabul qilamiz. Bunda markaz bilan hamkorlikda kichik biznes loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlar soddalashtirilgan tartibda belgilanadi.

Maqsadimiz – bir yil ichida kamida 150 mingta kichik biznes subyektni "oyoqqa turg'izish", kamida 25 mingtasini o'rta korxonalarga aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o'rnini yaratishdan iborat.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz
tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan
uchrashuvdagi nutqidani**

18.08.2023



MUNDARIJA

Moliyaviy termin va atamalarning glossariysi	8	6.1. Marketing konsepsiyasi	39
1. Loyihaning maqsadi	10	7. Mahsulot yetishtirish rejasi.....	42
1.1. Loyihaning maqsadi.....	11	7.1. Mahsulot yetishtirish rejasi.....	43
2. Loyiha tashabbuskori.....	12	8. HR rejasi.....	46
2.1. Loyiha tashabbuskori	13	8.1. HR rejasi	47
3. Loyiha strategiyasi.....	14	9. Moliyaviy reja	48
3.1. Loyiha strategiyasi	15	9.1. Moliyaviy reja	49
4. Mahsulot yetishtirishni tashkil qilish.....	16	9.1. Loyihani amalga oshirish uchun	
4.1. Mahsulot haqida	17	olinadigan kredit shartlari	50
4.2. Xom-ashyo haqida	28	9.2. Loyihani moliyalashtirish:	
4.3. Jihoz va uskunalar.....	34	moliyalashtirish mexanizmi va manbalari.....	50
5. Infrastruktura	36	10. Xulosalar.....	52
5.1. Infrastruktura	37	10.1. Xulosalar	53
6. Marketing konsepsiyasi	38	11. Loyihaning hisob-kitob qismi.....	56

MOLIYAVIY TERMIN VA ATAMALARNING GLOSSARIYSI

Atama nomi	Kengaytmasi	O'zbek tilidagi ma'nosi
PV	Present Value	Kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymatini aniqlash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.
NPV	Net Present Value	Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich yillar davomidagi pul oqimlarini joriy qiymati va biznesga kiritilgan sarmoyaninig farqi sifatida aniqlanadi.
IRR	Internal Rate of Return	Investitsiyalarning ichki daromadlilik darajasi (IIDD) yoki ichki rentabellik darajasi potentsial investitsiyalar rentabelligini baholash uchun moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichdir. IRR diskontlangan pul oqimlarini tahlil qilishda barcha pul oqimlarining sof joriy qiymatini (NPV) nolga tenglashtiradigan diskont stavkasi.
Diskontsiz kummulyativ saldo		Pul oqimini boshqarish va moliyaviy rejalashtirishda qo'llaniladigan o'lchovdir. Bu ko'rsatkich pul oqimlarini ma'lum bir muddatga qoldig'ini ko'rsatadi.
Diskontli kummulyativ saldo		Diskontni hisobga olgan holda jamlangan qoldiq - bu diskont stavkasini hisobga olgan holda har bir kichik davr oxirida to'plangan pulning umumiy miqdorini baholash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.



1. LOYIHANING MAQSADI



1.1. LOYIHANING MAQSADI

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi issiqxonalarda apelsin yetishtirishni tashkil etishdir.

Bundan tashqari, loyihani ishga tushirish orqali respublika aholisining ushbu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, hamda yangi ish o'rinlari tashkil etish va mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish uchun imkoniyatlar yaratish maqsad qilingan.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun, issiqxonalarda apelsin yetishtirishni tashkil etish va investitsion davrda tashkiliy ishlarni amalga oshirish maqsadida, umumiy qiymati 150 mln. so'm miqdorida investitsiya (bundan 100 mln. so'm bank krediti) mablag'larini jalb qilish rejalashtirilgan.

(ming so'mda)

Nomi	Summa	Loyihada ishtirok etish			
		Kredit	%	O'z mablag'lari	%
Tomchilatib sug'orish to'plami	10 000	10 000	100%	-	0%
Issiqxona majmuasining qurilish-montaj ishlari	72 000	42 000	58%	30 000	42%
Apelsin ko'chatlari 2 yillik	48 000	48 000	100%	-	0%
Jami asosiy vositalar	130 000	100 000	77%	30 000	23%
Aylanma kapital	20 000		0%	20 000	100%
Jami	150 000	100 000	67%	50 000	33%

Loyiha tashabbuskoriga ushbu loyihani amalga oshirish eksportbop mahsulotlar yetishtirishga imkon beradi.

2. LOYIHA TASHABBUSKORI



2.1. LOYIHA TASHABBUSKORI

Loyiha tashabbuskorining asosiy faoliyatiga issiqxonalarda apelsin yetishtirishni tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan va tashkilot ustaviga muvofiq boshqa faoliyat turlari kiradi.

Loyiha tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab tadbikorlik subyekti hisoblanadi.

Loyiha tashabbuskori xo'jalik faoliyatini o'zini-o'zi ta'minlash va moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi bank muassasalarida milliy va chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

Loyihaning joriy faoliyatini boshqarish nafaqat menejment sohasida, balki bog'dorchilik sohasida tajribaga ega bo'lgan direktor tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.



3. LOYIHA STRATEGIYASI



3.1. LOYIHA STRATEGIYASI

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarning asosiy vositalaridan biri iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha davlat siyosati hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda juda qulay investitsiya muhiti yaratildi, bu birinchi navbatda, har qanday strategik investor uchun muhim bo'lgan siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi.

Kichik biznesni rag'batlantirishning mavjud choralari va kichik biznes loyihalariga imtiyozlar berilishi loyihani yaratishning asosiy sabablari sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Ushbu loyiha doirasida loyiha tashabbuskorining strategik maqsadi ushbu biznes loyiha uchun qulay hududda issiqxonalarda apelsin yetishtirish loyihasini tashkil etishdan iborat.



4. MAHSULOT YETISHTIRISHNI TASHKIL QILISH



4.1. MAHSULOT HAQIDA

Sitrus ekinlari Rutadoshlar oilasiga kiruvchi Aurantiodeae (naranja) kenja oilasiga mansub o'simliklardir. Citrus avlodining tabiiy areali janubi-sharqiy Osiyoning juda keng tropik va subtropik hududlarini qamrab oladi. Yapon sitrolog olimi T.Tanaka ko'pgina mamlakatlarda sitrus o'simliklarning shakliy xilma-xilligini batafsil tadqiq qilib shunday xulosaga keldiki, ular asosan hind-malay floristik hududidan kelib chiqqan.

Sitrus ekinlari shakllari va guruhlarining eng ahamiyatli rivojlanishi Xitoyda emas, balki Hindistonda kechadi. Biroq yangi turlarning shakllanishi ikkala mamlakatda ham o'z joyiga ega bo'lib, bu yerlarda ular nafaqat yovvoyi sitruszorlarda, balki madaniy ekinlar orasida ham kuzatiladi. Tanakaning tadqiqotlariga ko'ra, sitrus ekinlari kelib chiqqan eng asosiy markaz Shimoliy Hindiston va Shimoliy Birmada joylashgan. Aynan shu yerda Citrus avlodiga mansub yovvoyi turlarning eng ko'p qismi uchraydi.

Himolayning g'arbida Panjobgacha C.limon Вирт., Clitetta Risso, C. Jatbhiri ning yovvoyi shakllari uchraydi. Hindistonning Assam shtati shirin va nordon apelsin, sitron hamda limonning ayrim turlari vatani hisoblanadi.

Sitrus ekinlari kelib chiqqan joyi Xitoy markazi Yanszi daryosi oqimi bo'ylab joylashgan provinsiya markazi bilan ifodalanadi. Mazkur markaz uchun C.junos(Sieb.) Tap., C. Ichangensis Sw. turlari endemik hisoblanadi. Himolay hududlari singari bu yerda ham mayda mevali bir qancha yovvoyi turlari o'sadi.

Shunday qilib, Citrus avlodi asosan materikdan kelib chiqqan va shakllangan. Faqat ayrim xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lmagan turlar Indoneziya va Tinch okeani orollarida hosil bo'lgan.



Sitrus ekinlari asosiy turlarining birortasi ham yovvoyi ko'rinishda topilmagan. Shu bois sitruslarning kelib chiqish markazlarini aniq belgilash qiyinchiliklar tug'diradi. Bu holat nordon va shirin apelsin, mandarin va limonga taalluqlidir. Tadqiqotchilar taxmin qilishadiki, hozirgi zamonaviy shakllar kelib chiqqan qadimgi yovvoyi turlar tabiatda yashay olmagan va yo'qolib ketgan. Ularning eng yaxshilari inson tomonidan tanlab olinib, madaniy bog'larda o'stirilgan.

Har xil turlar o'rtasida tabiiy duragaylanish va ko'p yuz yillar davomida eng yaxshi shakllarning tanlab borilishi, zamonaviy sitrus turlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Mandarin va greypfrut kabi qimmatli turlar atigi bir necha yuz yillar muqaddam mashhur bo'la boshlagan.

Olimlar Hindiston, Xitoy va qisman Indoneziyani sitrus ekinlarining beshigi (eramizdan 2-3 ming yil oldin) deb hisoblashadi.



Hindiston va Xitoyda saqlanib qolgan juda qadimgi tarixiy hujjatlarga ko'ra, sitrus ekinlarining mevalari o'sha zamonlarda shifobaxsh-gigiyenik vosita sifatida juda mashhur bo'lgan yoki ularni diniy sehrli ta'sirga ega deb hisoblashgan.

Yevropaga sitruslardan birinchi bo'lib sitron kirib kelgan. Bir necha yuz yillar keyinroq esa (XI-XII asrlar) arablar dorivor o'simliklar sifatida noranja (apelsin) va limonni tarqatishgan. Portugaliyaliklar Xitoyga dengiz yo'llarini ochgandan keyin, apelsin Yevropaga tanildi.

Buning natijasida sitrus ekinlari yer sharining ko'pchilik tropik va subtropik hududlarida asosiy mevali ekinlarning biriga aylandi. Ammo faqatgina XIX asrdan boshlab sitruslar jahon savdo aloqalarida muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu esa dastlab transport, keyin esa qayta ishlash sanoatining rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Sitrus mevali o'simliklarga limon, apelsin, mandarin, tanjerin,

laym, sitron va boshqalar kiradi. Shulardan hozir keng tarqalganlari apelsin, mandarin va limondir.

Aksariyat tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra, sitruslarning vatani Markaziy Xitoyning sharqiy qismi hisoblanadi. Vaqt o'tib, ular Hindiston, Yaponiya, Birma kabi mamlakatlar bo'ylab tarqalgan. Albatta, bunda "Buyuk Ipak yo'li" orqali savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchilarning ham roli katta bo'lgan. Shuningdek, Iskandar Zulqarnaynning Osiyoga yurishi sitrus mevalarning G'arb mamlakatlariga tarqalishida o'ziga xos sabab vazifasini o'tagan.

Apelsin bu yerlarga ancha kechroq, XIX asrning boshlarida yetib keldi. Greytfrut esa hanuzgacha "amerika mevasi" hisoblanadi, pomelmus esa Janubiy - Sharqiy Osiyodan tashqarida hali ham xo'jalik ahamiyatini kasb eta olgan emas. Barcha holatlarda ham Yevropaga yovvoyi shakllar emas, balki Osiyo davlatlarida uzoq davrlar mobaynida kechgan xalq seleksiyasining natijalari, ya'ni madaniy navlar kirib kelgan.

Shundan so'ng yevropaliklar apelsinni bilishgach, unga nisbatan qiziqish orta boshladi. Shoh va knyazlarning hovlilarida ular oynavand oranjereyalar ostida yetishtirildi. Aynan "oranjereya" so'zi inglizcha "orange", ya'ni apelsin so'zidan kelib chiqqan. London, Parij va Peterburgning muhtasham joylarida mana shunday yirik oranjereyalar tashkil etilgan. Bu vaqtning o'zida Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlarida sitrus ekinlarini ochiq maydonlarda yetishtirish kuchaydi. XV-XVI asrlarda ispan va portugal kolonizatorlari apelsin, limon va boshqa turlarni Markaziy va Janubiy Amerika, hamda G'arbiy Afrikaga olib kirishdi.

Gollandiya, Fransiya kabi davlatlarda esa apelsinlarni o'stirish uchun oynali qurilmalar — oranjeriya qurishadi. 500 yil davomida

sitrus mevalari haqida ko'plab rivoyatlar aytishgan, hatto uni "ilohiy ne'mat" deb ham tariflashgan.

Sitrus o'simliklari hozirgi kunda deyarli barcha mintaqalarda o'stirilmoqda. Xususan, Janubiy Yevropa, Osiyo, Amerika, Avstraliya kabi materiklarning 90 dan ortiq mamlakatida sitrus mevalari yetishtirilmoqda. Ularni eng ko'p eksportga chiqaruvchi mamlakatlar qatorida AQSh, Braziliya, Yaponiya, Italiya, Ispaniya, Argentina, Turkiya, Marokash mamlakatlarini sanab o'tish joizdir. Keyingi yuz yillikda jahon bog'dorchiligida sitrus mevalari oldingi o'rinlarni egalladi.

APELSIN (*Citrus sinensis* L)

Apelsin juda qadimdan eng yaxshi desert mevalardan biri hisoblanadi. Apelsin mevalarining ta'm sifatlari – qand va kislotaning uyg'unligi, kuchli hushbo'y hidi – uni faqatgina sitruslar orasida emas, balki boshqa barcha mevalar oldida ham birinchi o'rinlardan biriga qo'yadi.

Vitaminlilik darajasi bo'yicha apelsin mevalari limondan qolishmaydi. Boshqa mevalardan farqli ravishda ular tarkibidagi vitaminlarning mustahkamligi bilan ajralib turadi. Kislotaliligi va po'stining tig'izligi tufayli uning sharbatida vitaminlarning parchalanishi deyarli kuzatilmaydi. Hatto qaynash haroratigacha qizdirilganda ham apelsin sharbati o'zining vitaminlilik darajasini saqlab qoladi.

Mevalarining yangiligida iste'mol qilinishi va texnik qayta ishlanishidan tashqari, uning meva po'sti, gullari, barglari va yosh novdalari ham qayta ishlashga qabul qilinadi. Barglari va gullaridan attorlik va qandolatchilik sanoatida yuqori qadrlanadigan petigren va nerol tipidagi eng qimmatli efir moylari ishlab chiqariladi.

N.I.Vavilov ta'limotiga ko'ra apelsinning asosiy vatani Hindiston, ikkilamchi vatani esa Janubiy Xitoy hisoblanadi. MDH davlatlariga apelsin Gollandiya va Germaniyadan kirib kelgan (golland tilidan tarjima qilinganda "xitoy olmasi" ma'nosini anglatadi). Hozirgi kunda apelsin dunyoning barcha subtropik mintaqalarida yetishtiriladi va tarqalganlik darajasi bo'yicha sitruslar ichida birinchi o'rinni egallaydi.

Apelsin quyuq sharsimon shox-shabbali 8 m va undan ham balandroq uzoq yashovchi kuchli daraxt hosil qiladi. Barglari asosida yumaloq, uzunligi 7-10 sm, ingichka qanotchali. Barg qo'ltiqlarida tikanlari joylashadi. Gullari yakka, yoki kichik to'pgulli, rangi oq, o'rtacha o'lchamda, hidli.

O'zining xususiyatlari bo'yicha apelsin navlari to'rt guruhga bo'linadi:

- oddiy (yoki O'rta yer dengizi guruhi);
- kindikchali;
- korolka yoki qizil etli;
- Yaffa (Falastinning Yaffa provinsiyasi nomidan olingan).



Oddiy apelsinlar juda serhosil bo'lib, yumaloq, oval yoki biroz yassi har xil o'lchamdagi (vazni 80 dan 180 g gacha va undan ham og'ir) mevalarga ega bo'ladi. Meva po'stining rangi to'q sariq, urug'lari odatda ko'p. Pishish muddati va sovuqqa chidamliligi odatda navga bog'liq. Yaxshilangan Suxumi, Gamlin, Pervenets kabi navlar mazkur turkumga mansubdir.

Kindikchali apelsinlar vazni 150-250 dan 460 g gacha boruvchi yirik dumaloq yoki biroz cho'zinchoq shakldagi mevalari bilan ajralib turadi. Mazkur guruhning eng yirik mevalari 600 g gacha yetadi. Mevaning uchki qismida po'sti ajinli o'simta ko'rinishidagi hosilasi mavjud bo'lib, uning ostida o'rmon yong'og'i kattaligidagi yoki undan biroz kattaroq rivojlanmagan meva joylashadi. Mevalari urug'siz. Kindikchali apelsinlar kam hosillidir, ularga Vashington Navel, Kindikchali, Kindikchali silliq po'stli va boshqa shu kabi navlarni misol qilish mumkin.

Qizil etli apelsinlar daraxtlarining kichikroq o'lchamda bo'lishi, o'rtacha hosildorligi, meva vaznining kichikligi (90-170 g) va kam urug'liligi bilan ajralib turadi. Meva etining rangi qonsimon qizil. Korolek gruzinskiy, Korolek №15, Korolek 100 va boshqa navlar mazkur guruhga mansubdir.

ODDIY APELSIN



KINDIKCHALI APELSIN



QIZIL ETLI APELSIN





Yaffa guruhi apelsinlariga Valensiya, Shamuti, Xalili va boshqa navlarni misol qilish mumkin.

O'zbekistonning janubiy viloyatlarida apelsin uch marta o'sadi. O'suv davri mart oxiri aprelda boshlanadi va ob-havo sharoitlariga bog'liq ravishda 195-210 kungacha davom etadi. Apelsinda o'sish tabiatiga bog'liq ravishda ,bir o'suvli, ikki o'suvli va ba'zan uch o'suvli shoxlar uchraydi. Apelsin novdalarida 2 tipdagi kurtak kuzatiladi: qo'shma va vegetativ. Qo'shma kurtaklar to'rtta tipdagi novda hosil qiladi:

1. Normal bo'g'im oraliqli va normal rivojlangan bargli uzun novda, mo'l hosil beradi.

2. Qisqa bo'g'im oraliqli va asosida redutsiyalangan bargli o'rtacha novda. Odatda ikkita meva beradi.

3. Bargsiz juda qisqa bo'g'im oraliqli va sust o'sgan kuchsiz novda. Barglari tangachaga redutsiyalangan, odatda hosil bermaydi.



4. Bitta uchki gulli, barg bilan yaxshi qoplangan kuchli uzun novda.

O'tgan yilgi yozgi yoki yozgi-kuzgi o'suvda rivojlangan kuchli, yaxshi shakllangan shoxlarning uchki yoki unga yaqin kurtaklardan hosil bo'luvchi dastlabki ikki tipdagi novdalar eng serhosil hisoblanadi.

Asosiy hosilni joriy yildagi birinchi bahorgi o'suvdagi novdalar beradi. Apelsinning gul kurtaklari mandarindan farqli ravishda, avvalgi yil yozida hosil bo'ladi va qishki tinim tugab, kurtaklar yozila boshlaganda differensiatsiyalanadi. Gul kurtaklar o'tgan yilgi o'suvda hosil beradi, hosil bilan kuchli yuklangan yillarda mazkur kurtaklar joriy yilgi o'suvda ham hosil bo'lishi mumkin.

Apelsinning gullari chetdan changlanishga moslashgan, ammo o'zini-o'zi changlay olishi ham mumkin. Vashington Navel navining mevalari partenokarpik tarzda hosil bo'ladi. Foydali tugunchalar foizi 1,1 dan 9,3 gacha o'zgaradi. Apelsinning

mevalari nav va yilning meteosharoitlariga bog'liq ravishda noyabr-dekabr oylarida pishib yetiladi.

Payvandtag sifatida apelsin uchun trifoliatadan, toshloq yerlarda bigaradiyadan, yengil tuproqlarda apelsin urug'ko'chatlaridan, tuvak va oranjereyalarda apelsin, limon urug' ko'chatlaridan foydalaniladi. Payvand qilingan ko'chatlar ekilgandan so'ng 3-4 yili hosilga kiradi. Har yili hosil beradi.

O'zbekistondagi issiqxonalarda tabiiy iqlimi sitrus o'simliklarning yaxshi o'sib rivojlanishi va hosil berishi uchun qulay sharoit hisoblanadi. Jumladan, Respublikamizda mavjud bo'lgan issiqxonalarda limon, apelsin, mandarin va boshqalar shu muhit sharoitida yetishtiriladi. Issiqxonalar iqlim sharoitida apelsin o'simliklarini mahalliy rayonlashtirilgan navlaridan yuqori hosil olish imkoniyatlari mavjud. Hozirgi paytda apelsin o'simliklari issiqxona va xandaqlarda parvarish qilinmoqda. O'zbekistonda mahalliy rayonlashtirilgan apelsinning O'zbekiston navi mavjud.

Shirin apelsin ochiq sharoitda – buyi 5-12 metrga, ba'zan 20 metrgacha yetadigan daraxt; issiqxonalarda esa pakana (karlik) bo'ylik guruhidagi apelsinlarni bo'yi 2m,75sm metrgacha bo'ladi, shox-shabbasi yumaloq yoki piramidasimon, serbarg shoxlari tik usadi, barglari qultig'ida ko'pincha har xil uzunlikdagi tikanlari bo'ladi. Yosh novdalari va barglari och yashil rangga ega.

Barglari yirik, qalin, yaltiroq, tuksiz, tuxumsimon shaklda, uchi utkir, asosi yumaloq, cheti tekis yoki yuqorisi mayda tishchali bo'ladi.

Guli urtacha yirik, gultoqi oq, barg qultig'idan chiqadi, yakka-yakka yoki kichik qalqoncha shaklida. Changdoni 20-25 ta. Ayrim navlari gulining changgi bo'lmaydi. Tugunchasi yumshoq, keyinchalik tushib ketadigan ingichka ustunchasi bor, 10-13 ta uyali.

Mevasi yumaloq, yassi yoki oval shaklda, yirik mayda (har xil kattalikda) bo'ladi, ayrim navlari mevasining uchida kindikcha shaklidagi o'sigi bor. Po'sti odatda silliq, qalin, achchiq emas, tuq sariq, juda ko'p xushbo'y moy bezchalari bo'lib ular po'stining bo'rtib chiqqan joylari ostida joylashgan, etidan ajralishi qiyin.

Ayrim navlarida albedo (mezokarpiy) juda qalin bo'ladi. Mevasi 10-13 pallali. Eti tig'iz, sersuv, ba'zan rangli, nordon shirin. Urug'i ponasimon – tuxumsimon shaklda, ichi oq, murtagi ko'p bo'lib, ayrim navlari urug'siz yoki kam urug'li.

Apelsinning 300 ga yaqin navlari mavjud, ular 3 ta asosiy guruhlarga birlashtiriladi:

1. Oddiy apelsin. Mevasi yirik, mayda (5X5 sm), eti och sariq, achchiq-chuchuk, ko'p urug'li. Serhosil, kamdan-kam holda urug'siz navlari uchraydi.



Kindikli (o'siqchali) apelsin mevasining yirikligi (500-600 grammgacha) bilan ajralib turadi, odatda, 200-250 gramm atrofida bo'ladi. Mevasining uchida surgichsimon o'siq bo'lib uning ichida boshlang'ich meva joylashadi, u ba'zan po'stidagi kichik teshik (kindik) orqali ko'rinib turadi.

2. "Korolki" apelsinining mevasi yetilganda eti va suvi to'q qizil (qirmizi) rangga kiradi. Mevasi o'rtacha yirik, juda sifatli, nihoyatda mazali, o'rtacha va kech muddatlarda yetiladi.

3. O'zbekiston apelsinining mevasi po'sti qalin, mevasi yetilganda eti va suvi to'q qizil rangga kiradi.

Mevasi o'rtacha yirik, bir dona hosili 600gr dan 1 kg gacha tosh bosadi, juda sifatli, nihoyatda mazali, erta muddatlarda 210 kunda yetiladi.

Apelsinning yuqorida ta'riflab o'tilgan navlari bilan bir qatorida xilma-xil duragay formalari: shirin apelsin va boshqalar bor.

4.2. XOM-ASHYO HAQIDA

Apelsin ko'chatlarini ekishga yer tayyorlash

Issiqxonaga apelsin ko'chatlarini ekishdan oldin yerni qo'lda 20–25 sm chuqurlikkacha belkurak bilan ag'dariladi. Yerni ag'darish oldidan ma'dan va organik o'g'itlar beriladi.

Tuproqda namni saqlab qolish uchun xaskash yordamida ishlov beriladi.

Begona o'tlar ko'p bo'lganda xaskash bilan ildiz poyalari taroqlab olinib, tomorqa chetiga chiqariladi va yoqib yuboriladi.

Egatlar ketmon va xaskash yordamida tekislanadi.

Ekish oldidan yer yumshatilib, 2×2 m sxemada shaxmat usulida ko'chat ekishga ariqlar olinib, sug'orish uskunalari

o'rnatiladi va yer ekish uchun tayyorlanadi bir gektar issiqxonaga 2000 tup ko'chat ekiladi.



Apelsin ko'chatini ekish

Yosh ko'chatlarning yaxshi rivojlanishi uchun agrotexnikaga to'g'ri e'tibor qaratilgan holda ularni har vegetatsiya davrida oziqlantirib boriladi.

Bunda birinchi ozuqani yosh ko'chatlar ekilgandan keyin azotli ozuqalar bilan o'suv vegetatsiya davrida beriladi.

Ikkinchi ozuqani gullash vegetatsiya davrida kaliyli ozuqa beriladi va uchinchi ozuqani meva tugish vegetatsiya davrida fosforli o'g'itlar bilan oziqlantiriladi.

Ekilgan yosh ko'chatlar ustidan har xil kasalliklarga qarshi profilaktika sifatida 4,5 gramm Vertemeks 10 litr suvga aralashtirilib va 5 gramm BI – 58 10 litr suvga aralashtirilib, har o'n besh kunda bir marta sepiladi.

Ekilgan yosh ko'chatlar ustidan har xil kasalliklarga qarshi profilaktika sifatida har oyda ikki marotaba ishlov beriladi. Birinchi marotaba 4,5 gramm Vertemeks 10 litr suvga aralashtirilib

sepiladi va ikkinchi marotaba 5 gramm Nureld 10 gr 10 litr suvga aralashtirilib, har o'n besh kunda bir marta sepiladi.

Tavsiya etiladigan mahalliy navi: O'zbekiston navi.

Yerga ishlov berish: apelsin ko'chatlarini o'tqazish uchun issiqxona tuprog'i yaxshilab tekislanadi, hamda 50-60 sm chuqurlikda ishlanishi lozim.

Ekish sxemasi va muddati: issiqxonada apelsin ko'chatlarini to'g'ri burchakli sxemada ekilganda 2x2 m shaxmat sxemada ekilgani ma'qul. Apelsin ko'chatlarini O'zbekiston iqlim sharoitida issiqxonalarga erta bahor, yoz, kuz va qish oylarida ekish tavsiya etiladi. Negaki qish oylarida issiqxona ichini isitgichlar bilan isitiladi.

Yerni apelsin ko'chatini o'tqazishga tayyorlash: ko'chat o'tqazish joylari rejalangandan keyin 60 sm chuqurlikda uralar kovlanadi. Ko'chat o'tqazish paytida har qaysi chuqurga yana 10-15 kg chirigan go'ng, 100-150 g superfosfat va 50 g dan kaliy o'g'itlari solinadi. Ildizlari yaxshi rivojlangan bir va ikki yillik apelsin ko'chatlarida 3-4 tagacha birinchi tartib novdalar bo'lishi, tanasining yo'g'onligi 0,7-0,8 sm, ikki yilliklarida esa ikkinchi tartib novdalari va tanasining yo'g'onligi kamida 1 sm bo'lishi shart.

Kuzda apelsin ko'chatlari albatta ildizga ilashgan tuprog'i bilan birga o'tqaziladi, chunki aks holda ko'chatlarning bir qismi qurib qolishi mumkin. Ko'chat o'tqazish, shuningdek, shox-shabbani qalinlashtiradigan ortiqcha novdalar, shikastlangan ildizlari kesib tashlanadi.

Parvarishlash: sug'orish 15-20 sm chuqurlikda olingan egatlar orqali o'tqaziladi. Bunda suv tuproq 40-50 sm chuqurligigacha namiqquncha jildirاتب oqiziladi.

Dastlab ko'chatlar bir-ikki kun oralatib sug'oriladi, o'simliklar obdan tutib ketgandan keyin esa suv vaqti-vaqti bilan beriladi,



ammo tuproq butun o'suv davri davomida nam holatda bo'lishi kerak. Uchinchi yili esa sug'orish egatlari, o'simlikdan 50 sm uzoqlikda 30-40 sm chuqurlikda olinadi.

Apelsinning yaxshi o'sishi va hosil berishi uchun tuproqning optimal namligi DNS ga nisbatan 70-85 % bo'lishi kerak. Apelsin ko'chatlari tez-tez (mavsum mobaynida 25 martgacha) sug'orib turilishi lozim.

Sug'orish soni ob-havo sharoiti va o'simliklarning holatiga bog'liq bo'ladi.

Qumog' tuproqlarda apelsin o'rta hisobda fevralda 1 marta, martda 2, aprelda va mayda 3 martadan, iyunda 4, iyul va avgustda 4-5 martdan, sentabrda 3, oktabrda 2, noyabrda 1-2 marta sug'orilishi lozim.

Shunda 5-6 martagacha go'ng sharbati oqiziladi.

Yozning jazirama issiq kunlarida apelsin kechqurunlari va ertalab sug'oriladi.

Har qaysi sug'orishdan so'ng tuproq 10-15 sm chuqurlikda yumshatiladi. O'simliklar hosilga kirgandan keyin tuproqni yumshatish zarur boladi va sug'orish oralatib o'tqaziladi.

Qish davrida qator oralari chuqur (25-30 sm) ishlanib, bir yo'la chirigan go'ng va superfosfat solinadi. Undan keyingi ishlov berish sug'orish yoki go'ng sharbati berish, hamda mineral o'g'itlar bilan oziqlantirishga bog'lab olib boriladi. Yerni ishlashda ehtiyot bo'lish kerak, chunki o'simlikning asosiy ildizi 15-25 sm chuqurlikda joylashgan bo'ladi. Begona o'tlar muntazam ravishda yulib olinishi va issiqxonadan chiqarib tashlanishi lozim, chunki ular bilan shira va boshqa zararkunandalarni chiqarib tashlangan bo'lishi mumkin. Apelsin ko'chati o'tqazilgandan keyin ikkinchi yildan boshlab (tuproqqa kuzda ishlov berishda) go'ng va superfosfat solinadi. Bir, ikki va uch yillik ko'chatlarning har qaysisi ostiga 10 kg dan go'ng, 20 g dan fosfor va azot, 10 g dan kaliy (sof modda hisobida) solinadi, hosilga kirgan daraxtlariga



esa 20-25 kg dan go'ng va 80-120 g dan fosfor, azot, hamda 40-60 g dan kaliy beriladi (o'simliklarning yoshiga qarab solinadigan o'g'itlar miqdori oshirib beriladi). Mineral o'g'itlar ikki muddatda yarmi fevralda va qolgani mayning oxiri iyunning boshlarida (tugunchalar paydo bo'lganda) solinadi. Shuningdek, apelsin go'ng sharbati bilan ham sug'orib turiladi. Bunda birinchisi apelsin o'sa boshlash oldidan, ikkinchisi gullash oldidan va yana 3-4 chisi tugunchalari tug'ilgandan keyin, hamda mevalarining o'sish davrida 20-25 kun oralatib beriladi. Go'ng sharbati sigir, qo'y va parranda go'ngidan (2:1:1 nisbatlarda) iborat bo'lib, ular ariq suvi bilan birga sug'orish egatlariga oqiziladi.

Issiqxonadagi apelsin novdalari fevral oxiri yoki mart oyi boshlarida o'sa boshlaydi. Bu ob-havo sharoitiga, o'simlikning yoshi, meva qilish darajasi va boshqa omillarga bog'liq. Lekin, ayni shu davrida havoning o'rtacha kunlik harorati 12oS, tuproq harorati esa 9oS bo'lishi kerak.

Shakl berish. Apelsin daraxtiga keng oval shaklni berish uchun, shu yilgi yosh novdalar va ancha eski shoxlar kesib tashlanadi. O'suvchi novdalarni chilpish va ularni qisqartirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari shox-shabbaning ichida bo'ladigan ko'k bachki novdalar kesib tashlanadi. Shox-shabbaning qalinlashib ketmasligi uchun har qaysi oldingi shoxda ko'pi bilan ikkita, eng kuchli shoxlarda esa uchtagacha novda qoldirishga ahamiyat berish kerak.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash. Issiqxonadagi apelsin daraxtlari ko'pincha yumshoq qurt, qalqondor, giyoh biti (shira) va kanallardan zararlanadi. Qalqondorni yo'qotish uchun o'simliklar zalonning 0,3 % li eritmasi bilan (5-6 kun oralatib 2 marta) yaxshilab purkaladi.

Qalqondorning axlati (eksrementi) ga zamburug' tushadi.

Bu kuya barglardan yuvilmaydi. Uni yo'qotish uchun barglarga qo'shimcha ravishda 1 % li bordos yoki 0,2% li keltan eritmasi sepiladi. O'simliklar gommox (tanadan yelim oqishi) bilan kasallanganda u boshlangan paytidayoq va yog'ochlikning zararlangan qismi to sog'lom qavatigacha kesib olinadi. Shundan keyin tozalangan joy 3% li mis kuporosi (to'tiyo eritmasi) bilan dezinfeksiya qilinadi va bog' qaynatmasi (bog' mumi) surtib qo'yiladi. Bunday qaynatma tayyorlash uchun konifol va asalari mumini (2:1) oz miqdorda mol yog'i qo'shib qizdiriladi.

Daraxt tanasining hamma aylanmasi gommox bilan zararlanganda, uni idizi bilan kovlab olib kuydirib tashlanadi, tuproq esa formalinning 1% li eritmasi bilan dezinfeksiyalanadi.

Xonaki apelsin parvarishlash. Xonaki apelsinlarning bo'yi unchalik baland bo'lmaydi. Uy sharoitida nafaqat gullay oladi, balki tuzukkina hosil ham beradi. Uni uy ichida, deraza oldida parvarishlash mumkin.

4.3. JIHOZ VA USKUNALAR

Ushbu loyiha doirasida loyiha tashabbuskori apelsinning O'zbekiston navini issiqxona xo'jaligi tashkil etib yetishtirishni maqsad qilgan.

Issiqxona, noqulay iqlim sharoitida ekinlarga sun'iy muhit (harorat, yorug'lik, namlik va boshqalar) yaratadigan inshootdir. Asosan, mavsumdan tashqari davrlarda mahsulot yetishtirish, issiqxona va ochiq dala uchun ko'chatlar o'stirishga xizmat qiladi.

Ishlatiladigan resurslar

Issiqxona oynaband yoki polimer plyonka, stekloplast va

hokazolar bilan o'ralgan bo'ladi. Yog'och yoki temir, po'lat, alyuminiy kabi metall uskunalardan tiklanadi. Issiqxonalarining xilma-xil turlari mavjud. Ular foydalanish muddatlari va davomiyligiga qarab, qishki hamda bahorgi; vazifasiga ko'ra, ko'chat o'stiriladigan va sabzavot yetishtiriladigan; sabzavotlarni o'stirish texnologiyasiga qarab — tuproqli va gidropon; ichki jihozlarga qarab — so'kchakli va tuproqli turlarga bo'linadi. Konstruktiv yechimi jihatdan issiqxonalar nur o'tkazuvchi nishab tomonlari miqdoriga qarab, bir, ikki va ko'p tomonlama nishabli turlarga bo'linadi.

Joylashuvi

